

BO'LAJAK SHIFOKOR SHAXSINING MADANIYATINI YUKSALTIRISH

*M. Mahmudova*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqola shifokor shaxsning kelajagini belgilashda unda shakllangan kasbiy madaniyat hamda ma'naviyatning ahamiyati, hamda bu xislatlarni shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarining o'рни haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari maqolada salomatlikka doir xalq orasidagi maqol hamda sitatalar alohida o'rin egallagan.

Key words: shifokor, talaba, salomatlik, tibbiy madaniyat, kasbiy ma'naviyat, bemor.

doi: <https://doi.org/10.2024/2n36kw21>

Barchamizga ma'lumki, jamiyatda barkamol avlod yetishtirish uchun insonlarning salomatlik madaniyatini yuksaltirish kerak bo'ladi. Tabiiyki, bu har birimizdan zarur bilim, aql va yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishimizni talab qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, salomatlik madaniyati bugun paydo bo'lgan tushuncha emas, balki qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib kelayotgan ta'limotdir. Xususan, ushbu ta'limotning gullashida "Avesto" kabi boqiy kitobning yozilishi, Ibn Sinodek buyuk olimlarning aynan bizning zaminimizdan yetishib chiqqanligi milliy tibbiyotga ancha oldin tamal toshi qo'yilganidan darak berib turibdi. Tarixdan bizga ma'lumki, biror joyda olim-u mutafakkirlar, ulug' siymolar yetishib chiqishi albatta o'sha zamindagi madaniy aura va qulay shart-sharoitlar hamda o'z ajdodlaridan tafakkur yig'indisi merosiga chambarchas bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, mavjud oltin merosdan foydalangan holda, bo'lajak shifokorlar qalbida olijanob fazilatlarini, ularning zakovati va qudratini, fuqarolar oldidagi ma'suliyatini, baxt va saodat, osoyishtalik va farovonlik uchun kurashishni zulmatga qarshi ziyoning, jaholatga qarshi ma'rifatning g'alabasi muqarrarligini yuksak mahorat bilan badiiy tarzda ifodalash usullarini yoritishni asosiy vazifa qilib oldik.

Shubhasiz, inson hayoti faqat ovqat tanovvul qilishdan iborat emas, xususan dono xalqimiz bu borada ko'plab maqollar, nasihatlar qoldirgan. Misol uchun, "Sihat tilasang ko'p yema, Izzat tilasang ko'p dema", "Salomatlik--tuman boylik", "Boylikning boshi sog'liq", "Bosh rohati -- tan rohati" kabilar shular jumlasidandir.

Albatta sog'lom va barkamol avlod yetishishi uchun barcha birdek javobgar, ammo shu o'rinda tibbiyot xodimlarining ma'suliyati va ahamiyati doimgidek dolzarbligicha qolmoqda.

Masalan, shifokorning tibbiy bilimi yuqori bo'lsa-yu, muomala madaniyati oqsasa, bu tibbiy tarbiyda juda qo'pol xatolarni olib kelishi mumkin. Shu sababli, tibbiy tarbiya biz

¹ Mahmudova Muyassar Mahmudovna, Samarqand davlat chet tillar instituti, ped.f. doktori, professor

tasavvur qilganchalik oddiy emas. Sog'lom avlod tarbiyasi uchun davlatimizning har bir fuqarosidan, yoshlardan sog'lom fikr, go'zal axloq, ilm olishga chanqoqlik hamda keng dunyoqarashni taqazo etadi.

Har qanday shaxsning ma'naviy boyligi kasbga doir axloqi yoxud kasbiy madaniyati bilan belgilanadi. Aynan shu sababli ham mazkur atamalarining dialektik aloqalari ularni bir-biridan ajratmagan holda tadqiq qilishni talab qiladi. Masalan, dunyoning ko'plab mamlakatlari adabiyotlarida ushbu pedagogik muammoning ayrim jihatlarini ma'lum ma'noda o'rganilib, uni bartaraf etish yo'llarini topishga yo'naltirilgan tajribalar to'plangan. Ammo boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, shifokorlar kasbiy ma'naviyatiga oid jihatlar ko'zdan yiroqda qolganligi uchun muammoning kasbiy ma'naviyat, kasbiy axloq va kasbiy madaniyat uyg'unligidagi nazariy tomonlari alohida izlanishni taqazo etadi.

Xususan, oliy ta'lim muassasalarida tibbiy ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalari qatorida talaba-yoshlarda kasbiy-ma'naviy fazilatlar, kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Mazkur vazifalarni hal etishda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning ilmiy hamda texnologik darajasini mustahkamlash bilan birga, ularning ijtimoiy-axloqiy yo'nalishini, axloqiy g'oyalari va axloqiy tamiyillarini shakllantirish va rivojlantirishni belgilay oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shakllantirilgan kasbiy-ma'naviy fazilatlar kompleks asosda rivojlantirilib, kelajakda jamiyat hayotiga samarali ta'sir o'tkazishi uchun bu fazilatlarini uzluksiz, oliy ta'lim va tarbiya uyg'unligida amalga oshirilishi ta'minlanadi [3:47]

Aslida biz bo'lajak shifokorlarning ma'naviyati va madaniyatini rivojlantirish orqali qaysidir ma'noda bemorlarni davolash usullarini ham osonlashtiramiz; sababi, bemor doim "shirin so'z"ga muhtoj. Shu o'rinda taniqli shifokor V. M. BexteroV ta'kidlagandi, "Agarda bemor shifokor bilan muloqotdan so'ng o'zini yengil his qilmasa, u shifokor shifokor emas, darhol bu kasbni tark etsin". Bundan xulosa qilish mumkinki, har bir shifokor insonlarga yashash uchun, kasalni yengib o'tish uchun nafaqat muolaja qilishi kerak, balki so'z orqali ilhomlantira olishi ham kerak ekan.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi bilan taqqoslaganimizda, yuqoridagi kabi umumiy xususiyatlar ko'zga tashlandi. Tarbiyaviy qadriyatlarning negizida faol fuqarolik pozitsiyasi, yuksak ma'naviyatlilik, hamda ma'naviy qadriyatlar saqlanib qolgan. Shuningdek, mazkur qadriyatlarni asrash va o'rgatish – ta'limga oid siyosatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Misol uchun, bu borada AQSH da qabul qilingan qonun (The Student Citizen Act) da zamon bilan hamnafas o'quvchida qanday sifatlar shakllantirilishi va jamlanishi kerak degan savolga javob topsak bo'ladi.

Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, bo'lajak shifokor faoliyatida muvaffaqiyat cho'qqisiga chiqishi uchun asosiy shrtlardan biri bu uning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy hamda ma'naviy jihatdan tayyorligi va qodirligi, ya'ni shunga doir ijtimoiy kompetensiyalarga egaligi hisoblanadi.

Olima Axmedova Nigora ushbu soha bo'yicha quyida berilganlarni tavsiya sifatida o'z ilmiy ishlarida keltirib o'tgan:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida amalda bo'lgan "Odob-axloq qoidolari" mazmunini shifokorning kasbiy-ma'naviy fazilatlarini bilan boyitishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejalarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirib boorish;

bo'lajak shifokorlarda kasbiy-ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishda talabalarining kasbiy-hayotiy tajribalaridan foydalanishni ko'zda tutuvchi keyslardan samarali foydalanish;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiya tizimini takomillashtirishda guruh murabbiylari va bo'lajak shifokorlarning "Ustoz-shogird" maktablarini kasbiy-ma'naviy mazmun bilan boyitish;

talabalarga ijodiy tajriba orttirish uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarni kengaytirish ularni kasbiy-ma'naviy rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratib, ijobiy xulq motivatsiyasini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Axmedova N. D. "Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash tizimini rivojlantirish" p.f.f.d (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Namangan – 2020 yil.
- [2]. G'oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent. 1997. 30 b.
- [3]. Mahmudova M. Oilaviy tarbiya asoslari. Samarqand. 2017. 47 b.
- [4]. Ismatova M. S. Use of coaching technologies in auditorium training //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – C. 1-5.